




ANDIJON VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil yanvar-fevral



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-fevral)

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi – 65,5%**



**Aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmi -  
1 078,3  
ming so'm**




**Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi – 68,9%**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- mart holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-fevral)




## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- mart holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024

15 001

2023

18 010

2022

20 210

2021

18 512

2020

15 481

Soni, birlikda

2024

465

2023

453

2022

503

2021

566


2020

849


## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-fevral)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-fevral)




<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral)


Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	<b>3 621,6</b>	<b>100,0</b>	<b>111,2</b>
shahar va tumanlar:			
Andijon sh	1426,7	39,4	112,3
Xonobod sh	84,0	2,3	111,9
Oltinko'l	157,6	4,4	111,2
Andijon	204,3	5,6	111,0
Baliqchi	180,2	5,0	110,8
Bo'ston	68,7	1,9	112,2
Buloqboshi	112,7	3,1	110,3
Jalaquduq	157,0	4,3	110,2
Izboskan	161,8	4,5	109,5
Ulug'nor	61,0	1,7	110,9
Qo'rg'ontepa	174,6	4,8	110,0
Asaka	222,7	6,1	108,8
Marhamat	141,1	3,9	111,5
Shahrihon	183,4	5,1	110,9
Paxtaobod	135,5	3,7	109,6
Xo'jaobod	150,3	4,2	110,2

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar)





## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>3621,6</b>	<b>100,0</b>	<b>111,2</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	181,9	5,0	110,2
Moliyaviy xizmatlar	791,8	21,9	109,5
Transport xizmatlari	803,0	22,2	111,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	782,4	21,6	110,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	80,3	2,2	108,2
Savdo xizmatlari	958,3	26,5	111,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	87,2	2,4	109,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	148,0	4,1	115,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	67,7	1,9	111,1
Ijara xizmatlari	74,8	2,1	113,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	89,2	2,5	112,7
Shaxsiy xizmatlar	196,2	5,4	110,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	40,7	1,1	128,9
Boshqa xizmatlar	102,4	2,8	112,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-fevral mlrd so'mda)

Andijon viloyati	791,8
Andijon shahri	252,5
Xonobod shahri	15,8
Oltink'ol	34,7
Andijon	55,2
Baliqchi	50,6
Bo'ston	16,4
Buloqbooshi	31,5
Jalaquduq	40,4
Izboskan	45,6
Ulug'nor	17,6
Qo'rg'ontepa	41,7
Asaka	52,1
Marhamat	29,3
Shahrixon	44,8
Paxtaobod	30,1
Xo'jaobod	33,9

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-fevral)




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-fevral oylarida 86,8** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **31,8** foizni yoki **252,5** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-fevral** oylariiga nisbatan Andijon shahrida yuqori o'sish sur'ati **109,5** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **97,4** foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **406,0** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **112,6** foizni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>



## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-fevral)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi sur'ati
Andijon viloyati	803,0	111,9%
Andijon shahri	406,0	112,6%
Xonobod shahri	17,8	111,6%
Oltink'ol	27,6	112,3%
Andijon	30,7	112,1%
Baliqchi	52,0	111,7%
Bo'ston	10,3	114,1%
Buloqboshi	22,8	110,9%
Jalaquduq	23,4	112,4%
Izboskan	29,3	106,8%
Ulug'nor	10,0	112,0%
Qo'rg'ontepa	25,2	110,6%
Asaka	35,2	110,4%
Marhamat	30,0	112,7%
Shahrixon	29,4	110,7%
Paxtaobod	28,7	111,2%
Xo'jaobod	24,6	111,5%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙️ O'sishi sur'ati

**2024- yil yanvar-fevral** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **80,8** foizni tashkil etdi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati
Andijon viloyati	958,3	111,0%
Andijon shahri	363,5	111,8%
Xonobod shaxri	24,8	111,5%
Oltinko'l	53,9	111,4%
Andijon	56,0	111,7%
Baliqchi	40,8	110,5%
Bo'ston	23,7	112,5%
Buloqboshi	28,7	109,9%
Jalaquduq	42,6	109,7%
Izboskan	32,7	111,1%
Ulug'nor	15,3	111,0%
Qo'rg'ontepa	55,1	110,4%
Asaka	65,2	107,5%
Marhamat	36,4	111,3%
Shahrixon	44,7	111,2%
Paxtaobod	32,8	109,8%
Xo'jaobod	42,1	110,3%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

● O'sish sur'ati

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar)




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi.

**2024- yilning yanvar** oyida ularning ulushi **61,6** foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-fevral** oyida ularning ulushi **94,7** foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)




2024- yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 148,0 mlrd so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,6 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-fevral mlrd so'mda)



## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral)

**2024- yil yanvar-fevral**

o'ylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **67,7** mlrd so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9 %** ini tashkil etdi.



**Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)**

Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati
<b>Andijon viloyati</b>	<b>67,7</b>	<b>111,1%</b>
Andijon shahri	29,3	111,3%
Xonobod shahri	2,0	112,2%
Oltink'ol	1,8	110,5%
Andijon	2,6	113,3%
Baliqchi	2,4	110,9%
Bo'ston	1,1	115,4%
Buloqbo'shi	1,7	109,8%
Jalaquduq	2,8	110,7%
Izboskan	2,5	107,7%
Ulug'nor	1,2	112,0%
Qo'rg'ontepa	3,5	109,9%
Asaka	5,2	112,1%
Marhamat	3,3	111,4%
Shahrixon	3,5	113,4%
Paxtaobod	2,5	106,8%
Xo'jaobod	2,3	109,2%

■ Hajmi, mlrd so'mda      ✦ O'sish sur'ati


## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-fevral)



2024- yil yanvar-fevral oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **87,2 mlrd** so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)




<sup>1</sup>hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda




## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)

**2024- yil yanvar** oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **85,3** foiz.



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)




■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sish sur'ati

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)




**2020- yilning yanvar-fevral** oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **74,8** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi.




# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 17,2 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral, mlrd so'mda)



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 74-228-30-83



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**"Ta'lim" seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.



**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

**Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya kitoblarini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

**Yuridik xizmatlar hajmi** fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.